

**POYKENT SHAHRINING ARXEOLOGIK O'RGANILISHI VOHA MODDIY MADANIYATI
TARIXINI YORITISHDAGI AHAMIYATI**

Ismayilova O'g'ilbo'ldi Aleksey qizi

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va yuridik fakulteti 5-1ARL

19 guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: Kurbanov Bexruz Golibovich

Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi

kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro vohasida joylashgan Poykent shahri xarobalarining arxeologik o'rganilish tarixi, yozma manbalarda shahar haqida keltirilgan ma'lumotlarning ilmiy tahlili ask ettirilgan. Shuningdek, Poykent shahrining arxeologik o'rganilishi natijalarining shahar moddiy madaniyati rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini yoritishdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan.*

Abstract: *This article provides information on the history of the organization of the ruins of the city of Poikant in Bukhara, and the sources cited about it. Also, information about the organization of the city of Poykand in different periods, especially the organization of Poykent during the Soviet period, is presented.*

Абстрактный: *В данной статье приведены сведения об истории устройства руин города Пойканд в Бухаре и цитируемых об этом источниках. Также представлены сведения об организации города Пойканда в разные периоды, особенности организации Пойкента в советский период.*

Kalit so'zlar: *«tojirlar shahri», Tabariy, Ibn-al Xordadbek, Ibn al-Fakixlar, «Gorodishe Paykend», «Buxoro tarixi», «Somjan ko'li», V.V.Bartolid, L.A.Zimin, V.A.Shishkin, M.M.Diyakonov, A.Yu.Yakubovskiy, V.N.Kesaev, N.P.Kiparisova, S.K.Kabanovlar, A.R.Muxammadjonov, J.K.Mirzaaxmedov, Sh.T.Odilov, «Hudud ul-olam»*

Buxoro o'tmishi ko'plab muhim tarixiy voqealarga boy bo'lgan. Bu voqealarni o'rganishda tarixchi-olimlar uzoq davrlardan bizgacha etib kelgan manbalardan foydalanadilar. Miloddan avvalgi davrlarga oid arxeologik topilmalardan tortib, bugun ko'plab Respublika kutubxonalari xazinalari va arxivlarda saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma asarlarga - bularning bari jonajon o'lkamiz tarixi to'g'risida etarlicha tasavvur hosil qilish imkoniyatini yaratadi. Rivojlangan o'rta asrlar tarixi asosan yozma manbalarda nisbatan to'liq yoritilganligini hisobga oladigan bo'lsak, vohamizning qadim va ilk o'rta asrlardagi tarixi o'rganishda arxeologik qazishmalar natijalarining beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Bu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, vohamizda joylashgan bir vaqtlar qudratli va boy shaharlar bo'lgan Poykent va Varaxshoni arxeologik jihatdan o'rganish katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, olimlarning fikriga ko'ra bir vaqtlar efitalilar davlatining markazi hisoblangan «tojirlar shahri» Poykent vohamizning qadimiy tarixini

o'rganishda o'ziga xos o'ringa egadir. O'rta asr arab muarrixlari Tabariy, Ibn-al Xordadbek, Ibn al-Fakixlar asarlarida «Madina at- tujjor», - «Savdogarlar shahri» deya e'tirof etilgan, qadimda So'g'dning «Marvarid monand» shahri bo'lgan. Qadimgi Poykend shahri Buxorodan 60 km janubiy – g'arbda, Qorako'l tumani hududida joylashgan.

Buyuk Ipak yo'lida joylashgani, qulay geografik imkoniyatga egaligi bois, shahar xalqaro tranzit savdoda ishtirok qilishini e'tiborga olib, X asrda yashagan buxorolik tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida «Baykend aholisi hammasi savdogar bo'lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz (orqali boriladigan) mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo'lganlar»⁵⁰, - deb yozib qoldirgan. X asrda bitilgan bir qator tarixiy manbalarda Poykend Movarounnaxrning yirik savdo hunarmandchilik markazi sifatida tasvirlanadi. 1896-yilda V.V.Bartolid ko'rsatmasiga muvofiq Turkiston arxeologiyasiga qiziquvchilar to'garagi boshqaruvi Poykend to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni to'pladi. N.F.Sitnyakovskiy tomonidan shaharning va unda saqlanib qolgan imoratlar vayronalarining plani kartaga tushirildi. 1903-yilda R.Pampelli, 1913-14-yillarda L.A.Zimin boshchiligidagi ekspeditsiyalar Poykenda dastlabki qazuvlarni amalga oshirgan⁵¹. 1939-yilda Qadimgi Poykend tarixini arxeologik o'rganishlar tarixida yangi etap boshlandi. Rossiya Ermitaj, Jahon madaniyati tarixi instituti tomonidan tashkil etilgan Zarafshon ekspeditsiyasi, O'zkomstaris vakili V.A.Shishkin ishtirokida shahar vayronalari va uning atroflarida tadqiqotlar boshladilar. 1940-yilda ham bu ishlar davom ettirilib, unda taniqli arxeologlar V.A.Shishkin, M.M.Diyakonov, A.Yu.Yakubovskiy, V.N.Kesaev, N.P.Kiparisova, S.K.Kabanovlar qatnashgan. 1954-yilda Qadimgi Poykendning shaharga tutash qismlarini o'rganish maqsadida O'zbekiston F.A. tarix va arxeologiya institutining maxsus otryadi tadqiqotlar o'tkazdi. Natijada shahardan shimoliy sharq tomonda joylashgan qadimiy nekropoli (xilxona) qoldiqlari topib o'rganildi. 1956-yilda G.V.Shishkina tomonidan Poykend yaqinidagi Bodiosiy qasri qazib ochildi. 1981-yildan boshlab esa shahar xarobalarida O'zbekiston F.A. arxeologiya instituti va Rossiya davlat Ermitajining kompleks Buxoro ekspeditsiyasi muntazam ravishda tadqiqotlar olib bormoqda.

Hozirda faoliyat yuritayotgan Buxoro ekspeditsiyasi tarkibida O'zbekistonda taniqli arxeolog olimlar A.R.Muxammadjonov, J.K.Mirzaaxmedov, Sh.T.Odilovlar bilan birgalikda Rossiyalik professor G.L.Semyonov va uning shogirdlari izlanishlar olib bordilar. Bu izlanishlar samarasi sifatida 1985-yilda O'zbekiston «Fan» nashriyotida «Gorodishe Paykend» 1996-yilda Sankt Peterburgda «Sogdiyskaya fortifikatsiya V-VIII vekov» monografiyalari chop etildi. Juda ko'p ilmiy maqolalar e'lon qilindi. 1999-yildan boshlab esa Rossiya Davlat Ermitaji va O'zbekiston Respublikasi F.A.Arxeologiya instituti tomonidan har yili Sankt-Peterburgda «Materiali Buxarskoy arxeologicheskoy ekspeditsii» nomi ostida Poykenda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasida e'lon qilinmoqda. Arxeologik qazishlar natijasida to'planayotgan materiallar Qadimgi Poyked shahri tarixining o'sha davr manbalarida yoritilmagan tomonlarini tiklash imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Ammo,

⁵⁰ Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. А.Расулев таржимаси. Т., 1966, 25-бет.

⁵¹ Л.А.Зимин. Развалины старого Пайкенда. ПТКЛА. 17 йил. Т., 1913 й., 63-бет.

shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, haligacha shaharning tarixi to'laligicha o'rganilmagan va bu masalani hal etish biz yosh avlod oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarning tarkibi jihatidan Poykent to'g'risidagi yozma manbalarni 3 guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga Poykent shahri vujudga kelgan Zarafshon vohasi to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar keltirilgan yozma manbalar,

ikkinchi- shahar ilk o'rta asrlardagi topografiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar, uchinchi guruhga esa Poykentning siyosiy tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin. Poykent shahri paydo bo'lgan Zarafshon daryosining quyi oqimi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga amalga oshirgan yurishidan so'ng paydo bo'ladi. Bu voha to'g'risida ma'lumot bergan barcha yunon va rim mualliflari bu hududni daryo delitasi deb atab, keng cho'l bilan chegarada joylashganligini ta'kidlab o'tadilar. Masalan, makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga amalga oshirgan harbiy yurishi to'g'risida yozib o'tgan Kvint Kursiy Rufning ma'lumotlariga ko'ra Politimet daryosi (Zarafshon) dastlab tor o'zanda oqib, keyinchalik g'orga kirib borgan va yer ostida yo'qolgan⁵². Miloddan avvalgi I asrda yashab o'tgan geograf Strabonning ma'lumotlariga ko'ra, Politimet, So'g'diyonani suv bilan sug'orib «cho'l va qumli hududga kirib ketadi va o'sha yerda qum ostida yo'qoladi»⁵³. Arrian bo'yicha Politimet suvi tugaydigan joydan cho'l boshlangan: «Ko'pligiga qaramay suv qumlarda yo'qolib ketadi»⁵⁴. Tabiiyki, Poykent mikrooazisi va uning atroflari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta asr yozma manbalarida kengroq yoritilgan. Eng muhim va aniq ma'lumotlar IX-XII asr mualliflari asarlarida uchraydi. Poykent tarixini o'rganishda X asrda yashab o'tgan buxorolik tarixchi Abu Bakr Muhammad Jafar Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari katta ahamiyatga egadir. Bu asar bizgacha to'laligicha etib kelmagan, faqatgina qisqacha fors tilidagi tarjimasini saqlanib qolgan, xolos. Narshaxiyning So'g'd daryosining Poykent yaqinidagi yirik ko'lga quyilishi to'g'risidagi ma'lumotlari ayniqsa katta ahamiyatga egadir: «Xaromkom suvi Baykandga keladi. Baykandda qamishzorlar va katta-katta suv xalqoblari tutashadi; bularni «Borgini farox»- «Keng havz» deydilar va Qorako'l deb ham ataydilar. Ishonchli kishilardan eshitganmanki, u ko'lning kengligi yigirma farsangdir. «Masolik va mamolik»⁵⁵ kitobida aytilishicha, uni «Buxayrayi Somjan»- «Somjan ko'li» deb ataydilar, Buxoro suvining ortiqchasi ham o'sha joyga yig'iladi. Unda suv jonivorlari bo'ladilar; butun Xurosonda bu yerdagidek miqdorda qush va baliq tutilmaydi». «Buxoro tarixi»ning mazkur parchasida Narshaxiy ko'lning 4 ta nomini keltiradi: Borgini-Farox, Qorako'l, Buxayrayi Somjan va Dengiz. Muallifi noma'lum «Hudud ul-olam» asarida bu ko'l «Mavaza-i Baykend» ya'ni «Poykend atrofidagi ko'l» deb ataladi.

⁵² Квинт Курций Руф. О деяниях Александра Македонского// Древние авторы о Средней Азии (6 в. до н.э.- 3 в.н.э.)/Хрестоматия под ред. Баженова Л.В. Тошкент, 1940, 69- бет

⁵³ Страбон. География. 17 китоб. Стратанов таржимаси. М., 1964, 489 бет.

⁵⁴ Арриан. Поход Александра. Сергеенко М. таржимаси. М., 1962, 138 бет

⁵⁵ «Масолик ва мамолик»- яъни «йулла ва мамлакатлар»; одатда араб тилида ёзилган географик асарларга берилган ном.

REFERENCES:

10. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. А.Расулев таржимаси. Т., 1966, 25-бет;
11. Арриан. Поход Александра. Сергеенко М. таржимаси. М., 1962, 138 бет;
12. Квинт Курций Руф. О деяниях Александра Македонского// Древние авторы о Средней Азии (6 в. до н.э.- 3 в.н.э.)/Хрестоматия под ред. Баженова Л.В. Тошкент, 1940, 69- бет
13. «Масолик ва мамолик»- яъни «йуллар ва мамлакатлар»; одатда араб тилида ёзилган географик асарларга бериладиган ном;
14. Страбон. География. 17 китоб. Стратанов таржимаси. М., 1964, 489 бет.
15. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
16. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
17. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
18. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
19. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
20. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
21. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
22. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.
23. Nasirkhonzoda, A. N. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(8), 28-30.